

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



XALQARO AUDIT
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000 – Biznes va boshqaruv
Magistratura mutaxassisliklari:	70410102-Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi- 2022

70410102-AUDIT (TARMOQLAR VA SOHALAR BO‘YICHA) MUTAXASSISLIGI UCHUN			
Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
336 INTA 1 8 1.05	2022-2023	1-2	8
Fan/modul turi	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari
Majburiy fanlar	O‘zbek		4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)
			Jami yuklama (soat)
Xalqaro audit	120		120
			240
1.	I.Fanning mazmuni Mazkur fan globallashtirish davrida auditorlik faoliyatini tashkil qilish, rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyatini hozirgi holati, audit sohasida transmilliy kompaniyalar faoliyatini tashkil qilish masalalarini o‘rganadi. Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini yaratish, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va shaffofligini ta’minlashda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash bo‘yicha talabalarni zarur bulgan bilimlar bilan qurollantiradi. “Xalqaro audit” fani tanlov fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1 - kursda o‘qitiladi. Xalqaro audit fanini o‘qitishdan maqsadi – talabalarga xalqaro audit, uning tarkibi va modellari, xalqaro auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va kator mamlakatlar ilg‘or tajribalarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi – Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy kunikmalar, auditorlik faoliyatini tashkil kilishda uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi. II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak: - xalqaro audit tizimi va uning modellari; - xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalarining rivojlanish tarixi; - rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lishi; - xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik tekshiruvini o‘tkazishni tashkil qilishni; - xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik tekshiruvda taxliliy amallarni qo‘llay olishni; - xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik xulosasi va hisobotini rasmiylashtirishni bilishi va ulardan foydalaia olishi; - xalqaro auditorlik kompaniyalari faoliyatini tahlil qilish; - xalqaro auditorlik kompaniyalar reytingini baholay olish; - xalqaro auditorlik kompaniyalari ish tajribalaridan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini belgilash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)		

III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;
- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, perseptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarni baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetensiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rganish, tahlil qilish va qayta ishlash;
- o'rganish natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lim oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talab etiladi.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Modul. Xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyati

1-mavzu. "Xalqaro audit" fanining predmeti, obekti va metodi

"Xalqaro audit" fani va uning ahamiyati. Fanning predmeti, obekti va metodlari. "Xalqaro audit" fanida analiz, sintez, induksiya, deduksiya va boshqa usullarning qo'llanilishi. "Xalqaro audit" fanining "Amaliy audit", "Ichki audit", "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" fanlari bilan o'zaro bog'liqligi.

2-mavzu. Xalqaro audit va uning modellari

Xalqaro audit haqida tushuncha. Xorijda auditorlik faoliyatining shakllanish bosqichlari. Xalqaro auditorlik faoliyatining hozirgi holati.

Xalqaro auditning modellari. Britan-Amerika modeli. Kontinental model. Janubiy Amerika modeli.

3-mavzu. Xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalari, ularning rivojlanish tarixi

Xalqaro auditorlik tashkilotlari. Buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha kumita (IASC), Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC), Xalqaro auditorlik amaliyoti qo'mitasi (IAPS)HHnr faoliyat yunalishlari. Xalqaro auditorlik kompaniyalari. «Katta to'rtlik» tarkibiga kiruvchi auditorlik kompaniyalari. Price Waterhouse, KPMG, Ernst and Young, Deloitte Touche Tohmatsu International auditorlik kompaniyalari va ularning faoliyat yunalishlari.

4-mavzu. AQSH va Yevropa davlatlarida audit tizimi

AQSH da auditorlik faoliyati. Germaniyada auditorlik faoliyati. Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyati. Fransiyada auditorlik faoliyati. Italiyada auditorlik faoliyati. Ispaniyada auditorlik faoliyati.

5-mavzu.Osiyo davlatlarida audit tizimi

Yaponiyada auditorlik faoliyati. Xitoyda auditorlik faoliyati. Koreya Respublikasida auditorlik faoliyati.

6-mavzu. MDX, davlatlarida audit tizimi

Rossiya Federatsiyasida auditorlik faoliyati. Ukrainada auditorlik faoliyati. Belarus Respublikasida auditorlik faoliyati. Ozarbayjonda auditorlik faoliyati. Qozog'istonda auditorlik faoliyati.

2-Modul. Auditning xalqaro standartlari va axlok kodeksi

7-mavzu. Auditning xalqaro standartlari

Audit standartlari haqida tushuncha. Xalqaro audit standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish jarayoni. Xalqaro audit standartlarining konseptual asosi.

Audit standartlarining asosiy tarkibiy qismlari. Audit standartlarining turlari: umumiy standartlar, ishchi standartlar, hisobot standartlari, maxsus standartlar.

8-mavzu. Auditning Axloq kodeksi

Axloq meyorlari haqida tushuncha. Auditning axloq kodeksi. Axloq kodeksini ishlab chiqish tarixi. Axloq kodeksining tamoyillari. Mustaqillik, vijdonlilik, konfidensiallik. Umuminsoniy meyor va tamoyillarga amal qilish, jamiyat qiziqishlarini inobatga olish. Auditorning obektivligi va ziyrakligi. Auditorning kasbiy mahorati. Solik munosabatlari. Professional xizmat uchun haq to'lash Auditorlar o'rtasidagi munosabatlar, xodimlarning auditorlik tashkilotlari bilan munosabati. Nashr kilinadigan axborot va reklama. Professional xizmatga aloqador bulmagan soxada auditorning xarakati. Xalqaro faoliyat.

9-mavzu. Auditning umumiy standartlari

Moliyaviy hisobotni tekshirishning maksadi. Auditorning mijoz oldidagi xat-majburiyati. Tekshirish o'tkazishda shartnoma. Biznesni bilish. Auditning ishchi hujjatlarini tuzish. Auditorlik tekshiruvda aldash va xatoni aniklash.

Auditor ishi sifatini tekshirish. Moliyaviy hisobotning auditida qonunlar va meyoriy hujjatlarni ko'rib chiqish.

10-mavzu. Auditning ishchi standartlari

Auditorlik dalillar va ularni olish usullari. Auditorlik tanlash. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish. Auditda muhimlik va tavakkalchilik darajalarini aniqlash. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash. Ma'lumotlarning kompyuter ishlovi sharoitida audit. Buxgalteriya baholarining auditi. Bog'liq tomonlar. Boshqa auditor va ichki audit ishidan foydalanish.

11-mavzu. Auditning hisobot va maxsus standartlari

Moliyaviy hisobotni tekshirganligi xususida auditorlik hisoboti. Buxgalteriya hisoboti to'g'risida auditorlik xulosasini tuzish tartibi. Auditorlik xulosasini imzolash sanasi va buxgalteriya hisoboti tuzilgan hamda taqdim qilingandan keyingi sanadan yuz beradigan voqealarni aks ettirish. Maxsus maksaddagi audit shartnomasi bo'yicha auditorlik hisoboti. Istiqbolli moliyaviy ma'lumotlarni tekshirish. Moliyaviy hisobotning sharxi bo'yicha kelishuv. Moliyaviy hisobotga taalluqli amallarni bajarish buyicha kelishuv. Moliyaviy ma'lumotlarning kompilyasiyasi bo'yicha kelishuv.

12-mavzu. Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzish

Auditorlik xulosasi va hisoboti. Auditorlik hisobotining tuzilishi. Auditorlik hisobotining kirish qismi. Auditorlik hisobotining tahliliy qismi. Auditorlik hisobotining yakuniy qismi. Auditorlik hisoboti uchun javobgarlik. Auditorlik xulosasining tuzilishi. Auditorlik xulosasida adresat. Auditorlik xulosasining kirish qismi. Auditorlik xulosasining qayd etish qismi. Auditorlik xulosasining yakuniy qismi. Auditorlik xulosasining sanasi. Auditorlik xulosasidagi imzolar.

Auditorlik xulosalarining turlari. Ijobiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi. Modifikasiyalangan fikr bilan ifodalangan auditorlik xulosasi. Salbiy fikr bildirilgan

auditorlik xulosasi. Izoxlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi. Fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi. Tushuntirish kismi kiritilgan izoxlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi. Auditorlik xulosasini taqdim etish. Auditorlik xulosasi uchun javobgarlik.

13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi audit tizimini xalqaro miqyosda integrasiyalash masalalari

O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari. Milliy audit tizimining meyoriy-xukukiy bazasi. O‘zbekistonda auditorlik kompaniyalari faoliyati. Milliy auditorlik kompaniyalarini xalqaro auditorlik kompaniyalari faoliyati muvofiklashtirish masalalari.

III. Amaliy mashg‘ulotlar buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar
(*Seminar mashg‘ulotlari*), (*Mustaqil ta’lim*), (*Kurs ishi*) o‘quv rejada ko‘rsatilgan turi (nomi) bo‘yicha yoziladi)

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-Modul. Xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyati

1-mavzu. “Xalqaro audit” fanining predmeti, obekti va metodi

2-mavzu. Xalqaro audit va uning modellari

3-mavzu. Xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalari, ularning rivojlanish tarixi.

4-mavzu. AQSH va Yevropa davlatlarida audit tizimi.

5-mavzu. Osiyo davlatlarida audit tizimi.

6-mavzu. MDX, davlatlarida audit tizimi.

2-Modul. Auditning xalqaro standartlari va axloq kodeksi

7-mavzu. Auditning xalqaro standartlari.

8-mavzu. Auditning Axloq kodeksi .

9-mavzu. Auditning umumiy standartlari.

10-mavzu. Auditning ishchi standartlari.

11-mavzu. Auditning hisobot va maxsus standartlari.

12-mavzu. Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzish.

13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi audit tizimini xalqaro miqyosda integrasiyalash masalalari.

IV. Fan bo‘yicha kurs ishi

Fan bo‘yicha kurs ishi o‘quv rejasida rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar **Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

11-Modul. Xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyati

1-mavzu. “Xalqaro audit” fanining predmeti, obekti va metodi

2-mavzu. Xalqaro audit va uning modellari

3-mavzu. Xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalari, ularning rivojlanish tarixi.

4-mavzu. AQSH va Yevropa davlatlarida audit tizimi.

5-mavzu. Osiyo davlatlarida audit tizimi.

	6-mavzu. MDX, davlatlarida audit tizimi. 2-Modul. Auditning xalqaro standartlari va axloq kodeksi 7-mavzu. Auditning xalqaro standartlari. 8-mavzu. Auditning Axloq kodeksi . 9-mavzu. Auditning umumiy standartlari. 10-mavzu. Auditning ishchi standartlari. 11-mavzu. Auditning hisobot va maxsus standartlari. 12-mavzu. Auditorlik xulosasi va hisobotini tuzish. 13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi audit tizimini xalqaro miqyosda integratsiyalash masalalari. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar, mavzular bo‘yicha prezentatsiyalar tayyorlash va o‘rnatilgan tartibda taqdim etish tavsiya etiladi.
6.	VI Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak: - xalqaro audit tizimi va uning modellari; - xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalarining rivojlanish tarixi; - rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lishi; - xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik tekshiruvini o‘tkazishni tashkil qilishni; - xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik tekshiruvda taxliliy amallarni qo‘llay olishni; - xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik xulosasi va hisobotini rasmiylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni olishi; - xalqaro auditorlik kompaniyalari faoliyatini tahlil qilish; - xalqaro auditorlik kompaniyalar reytingini baholay olish; - xalqaro auditorlik kompaniyalari ish tajribalaridan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini belgilash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)
7.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
8.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish (test va og‘zaki)ni topshirish.
9.	IX. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar 1. Azizov SH, Yuldasheva S. Mejdunarodniy audit. Uchebnoye posobiye. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013.-276 s. 2. Avlokulov A.Z., Sherimbetov I.X. Xalqaro audit. O'quv qo'llanma. -T.:

	“IQTISOD-MOLIYA”, 2017. -116 b. 3. Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Xalqaro audit. Darslik. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. -348 b. 4. Nesterenko A.V., Bezdolnaya T.Y., Sklyarov I.Y., Bashkatova T.A. Mejdunarodniye standarti audita: uchebnoye posobiye- 8-ye izd., pererab. i dop. - Stavropol: OOO «Sekvoya», 2016. -190 s. 5. Ilhomov SH.I. Audit. Darslik. I-qism. -T.: “Iqtisodiyot”, 2018. -295 b. Qo’shimcha adabiyotlar: 6. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik koidasi bo’lishi. Axborot manbalari 1.www.gov.uz – (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali). 2.www.lex.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi). 3.www.mf.uz- (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti) 4.www.stat.uz- (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘sitasi rasmiy sayti) 5.www.publicfinance.uz – (O‘zbekistonda budjet islohotlari loyihasi) 6.www.ach.gov.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining rasmiy sayti) 7.www.openbudget.uz-(O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq budjet” portali) 8.www.ipsasb.org- (Davlat sektorida buxgalteriya hisobi standartlari bo‘yicha xalqaro tashkilot).				
10.	O‘quv dasturi QarMII Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2022 yildagi-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil ____ ____ dagi ____ - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan fan dasturlarini o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.				
11.	Fan/modul uchun mas’ullar: Egamberdiyeva S.R. -QMII, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti, i.f.n.				
12.	Taqrizchilar: <table border="0" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Erkayeva G.P.</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">QDU “Iqtisodiyot va servis” kafedrası dotsenti, i.f.n. (turdosh OTM dan)</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">Fayziyeva SH.SH.</td> <td style="text-align: center;">“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.</td> </tr> </table>	Erkayeva G.P.	QDU “Iqtisodiyot va servis” kafedrası dotsenti, i.f.n. (turdosh OTM dan)	Fayziyeva SH.SH.	“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.
Erkayeva G.P.	QDU “Iqtisodiyot va servis” kafedrası dotsenti, i.f.n. (turdosh OTM dan)				
Fayziyeva SH.SH.	“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.				